




## ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



### IMPROVEMENT OF THE REGULATORY AND LEGAL BASIS OF THE NEIGHBORHOOD INSTITUTE, WHICH IS AN IMPORTANT COMPONENT OF THE NGO

**Jasur O. Kenjayev**

senior lecturer, lieutenant colonel

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Training Institute  
Tashkent, Uzbekistan

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** neighborhood institution, self-governing body, action strategy, development strategy, human rights, social policy.

**Received:** 29.07.24

**Accepted:** 31.07.24

**Published:** 02.08.24

**Abstract:** Self-governing bodies of citizens have the status of a historical, unified, social institution that embodies the values and traditions of the people, has a social and spatial mechanism, and reflects the social relations of the members of the society. In this article, the history of the civil society and the specific aspects of the improvement of the ethical and legal foundations of the citizens' self-governing bodies, which are institutions, in our society, in particular, in our legislation, are analyzed. Also, as a result of large-scale organizational and legal measures implemented in the society of Uzbekistan, it is based on the active participation of citizens in the process of deepening social and socio-economic reforms of self-governing bodies.

### NNTNING MUHIM KOMPONENTI BO'LGAN MAHALLA INSTITUTINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARINING TAKOMILLASHUVI

**Jasur O. Kenjayev**

katta o'qituvchi, podpolkovnik

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institute  
Toshkent, O'zbekiston

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mahalla instituti, o'zini o'zi boshqarish organi, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, inson huquqlari, ijtimoiy siyosat.

**Annotatsiya:** Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari xalq qadriyatları va urfodatlarini o'ziga mujassamlashtirgan, ijtimoiy makon mexanizmiga ega bo'lgan tarixiy birlik, ijtimoiy institut maqomiga ega bo'lib, unda jamiyat a'zolarining ijtimoiy munosabatlari

aks etib kelgan. Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining tarixiy instituti bo‘lgan fuqarolarning o‘zin o‘zi boshqarish organlarining me’yoriy-huquqiy asoslarining jamiyatimizda, xususan, qonunchiligidan takomilashuvining o‘zi xos jihatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiya va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtiroy etib borishi asoslangan.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ ИНСТИТУТА СОСЕДСТВА, ЯВЛЯЮЩЕГОСЯ ВАЖНОЙ СОСТАВЛЯЮЩЕЙ НПО

*Джасур О. Кенджиаев*

*старший преподаватель, подполковник*

*Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** институт соседства, орган самоуправления, стратегия действий, стратегия развития, права человека, социальная политика.

**Аннотация:** Органы самоуправления граждан имеют статус исторического, единого, социального института, воплощающего ценности и традиции народа, обладающего социальным и пространственным механизмом, отражающего социальные отношения членов общества. В данной статье анализируются история развития гражданского общества и конкретные аспекты совершенствования этико-правовых основ органов самоуправления граждан, являющихся институтами, в нашем обществе, в частности, в нашем законодательстве. Также в результате масштабных организационно-правовых мер, реализуемых в обществе Узбекистана, базируется на активном участии граждан в процессе углубления социальных и социально-экономических реформ органов самоуправления.

### KIRISH

Bugungi zamонавиј ѡамиятда махалла институтини фуқаролик ѡамияти институтлари ичидага о‘зига хос аҳамиятга ега бо‘лган давлат ячейкаси дејиш мумкин.

Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashda uning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Yaqin o‘tmishga nazar tashlasak, mustaqillik yillarda mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

### ASOSIY QISM

Milliy davlatchiligidan tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida dastlab 1992-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining (105-moddasida) mustahkamlab qo‘yilgan edi. Qabul qilingan milliy huquqiy hujjatlarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o‘z aksini topdi. Mustaqillikdan keyin davrda mahalla qo‘mitalari tashabbuskor jamiyat tashkiloti sifatida o‘z ahamiyatini topa boshladi. Mahalla mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta’min etishda, omma kuch-g‘ayratini bunyodkorlikka yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, dastlabki bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan «Mahalla» jamg‘armasi [1, B.119.] faoliyatining asosiyo yo‘nalishlari etib: tarixan tarkib topgan milliy va ma’naviy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an’analarini ommalashtirish, respublika aholisi o‘rtasida madaniy va ma’rifiy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish; insonparvarlik va mehr-shafqat, kishilar o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish va yaxshi qo‘shnichilik g‘oyalarini tushuntirish bo‘yicha faol tashviqot va targ‘ibot ishlarni olib borish; har bir aniq hududda yashovchi kamxarj oilalar, nogironlar, keksalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish [2] va boshqa muhim masalalar bilgilab beriladi.

Shuningdek, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi dastlabki Qonunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga quyidagi ta’rif berilgan edi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga – fuqarolarning xalq hokimiyatini amalga oshirishining, davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishining vositalaridan biridir. O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning (aholining) yig‘inlari hisoblanadi. O‘zini o‘zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq, ovullarla, ularning tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarla tashkil qilinadi [3, B.111.]. 1999-yil 14-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi – fuqarolarning O‘zbekiston Konstitusiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z

manfaatlardan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlardan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir. Qonunga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq, ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari” [4, B.35-49.] ekanligi o‘z tasdiqini topadi.

Bundan tashqari, mahalla institutini yanada takomillashtirish, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tubdan oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ushbu qonunlar keyinchalik yanada takomillashgan holda, ya’ni 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan edi.

Shuni ham o‘rni kelganda ta’kidlash lozimki, aksariyat olimlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruvi fuqarolik jamiyatining elementi ekanligini ta’kidlab, ma’muriy va hududiy birliklarda aholining mustaqil faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan, davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydigan tuzilma deb e’tirof etishga assosiy e’tiborni qaratadilar. Ammo fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruvi fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan farqli ravishda davlat qurilishining muhim va ajralmas elementi ekanligini hisobga olmaydilar [5, B.22]. Negaki ular siyosiy va ijtimoiy mansubligi jihatidan davlat organlari bilan hamkorlikda, ayrim o‘rinlarda mahalliy hokimiyat organlari sifatida davlatning ijtimoiy siyosati yuritishiga o‘z hissalarini qo‘shib boradilar.

Xususan, 2017-yilda kuchga kirgan muhim davlat dasturi - O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish; fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish; mahalla institutining jamiyat boshqarividagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish» [6] kabi muhim vazifalar belgilangan edi va bu strategik vazifalar tizimli ravishda o‘z ahamiyatini topib bordi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagagi «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlарини ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlari belgilab berdi.

Shu bilan birga, jamiyatimiz tarixida ik bor fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo‘sghan tashabbuskor

fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan «Mahalla iftixori» ko'krak nishoni ta'sis etildi [7].

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tizimli tashkil etish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan sohani amaliy ishlarni yanada takomillashtirish asosiy masala sifatida o'z ahamiyatini topa boshlaydi.

Xususan, jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sohasida mahallalarning tashabbuskorligini oshirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalg etish; mahallalarda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vazifalarining ijrosini ta'minlash, ular tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardagi fuqarolardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish; davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish; mahallalarda yuzaga kelayotgan turli muammolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va bartaraf etishda jamoatchilik tuzilmalari imkoniyatlarini samarali ro'yobga chiqarishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevralda "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinadi [8].

O'tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha «mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla» tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtaida ishonchli «ko'priklar» bo'lishini amalda ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuni ham ta'kilash lozimki, mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, fuqarolarimizni o'z hayotidan rozi bo'lib, ertangi kunga qat'iy ishonch bilan munosib hayot kechirishini ta'minlash bo'yicha oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirishda jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblangan mahalla institutining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar yig'inlari ishini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoyi kadrlarni jalg etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi Aholi muammolari bilan ishslashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [9] Farmoni qabul qilinadi. Bunda, xususan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o'rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko'rish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish; har chorakda jamoatchilik nazoratining natijalari, aniqlangan muammolar to'g'risida umumlashgan ma'lumotlar, shuningdek, tegishli mansabdor shaxslarning hisobotini eshitish bo'yicha takliflarni xalq

deputatlari Kengashlari majlislarida muhokama qilish uchun kiritish;ani qlangan muammolarni umumlashtirish hamda hal etish maqsadida elektron axborot almashish tizimini joriy etish; joylarda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar loyihamalarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etish va ularning ijrosini ta'minlashda tizimli hamkorlikni o'rnatish vazifasi qo'yiladi.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahallaning "faol" modelini joriy etish orqali mahalla tizimini rivojlantirish va mahallabay ishslashda davlat organlari, mahalliy hokimlik va jamoat tashkilotlarining o'zaro samarali hamkorligi qatiy belgilab qo'yildi. Taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadida ham mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish bo'yicha yo'nalishlar belgilandi.

Mahallalarning vakolatlari kengaytirilib, ularning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Aholining mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish yo'lga qo'yildi [10]. Negaki, mahalla instituti hududdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy masalalardn doimo xabardor ekanligi, undan boshqa o'z hududini bunchalik yaxshi bilmasligi va ijtimoiy ko'rildigan masalalar ham ijtimoyi xizmatlar orqali mahallaning o'ziga ko'rib, hal etilishi kutilgan natijani berishi tabiiy.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida 2023-yil 11-sentabrda 100 muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini ham mazkur tahlil qilinayotgan masalaga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Xususan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi masadlarining ko'p sonli qismi mahalla instituti va mahalliy boshqaruv tiziini takomillashtirishga qaratilganligi bilan e'tiborga molik. Jumladan, 74-maqsad: aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi «tayanch ko'prika aylantirish, ya'ni bunda mahallaning mablag'larini aholining ovoziga ko'ra, infratuzilma loyihamalariga yo'naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamida 3 barobar ko'paytirish, mahallalarda aholi bilan ishslashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib va boshqalar; 76-maqsad: mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformasiya qilib, hududiy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida yo'lga qo'yish, bunda mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish va boshqalar; 82-

maqsadda esa, xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish, xususan, murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlan tilishini ta'minlash, hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish [11] kabi vazifalar o'z ahamiyatini topgan.

Bizning nazarimizda, mahalla instituti demokratiya maktabi va liberal qarashlarning asosiy serkulasiyasi bo'lishi jamiyatda fuqarolarning mahalla institutiga bo'lган ishonchini orttiradi.

Mahalla institutining haqiqatda «xalq ommasini davlat, hokimiyat idoralari bilan bog'lab turuvchi ko'priklari» vazifasini o'tashi, «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasining amaliyotga to'laqonli tatbiq etish hamda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi rolini oshirish muhim hisoblanadi [12 B.21.].

Shu jihatdan, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishslashga mas'ul bo'lган shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta'minlash hamda Yangi O'zbekiston Konstitusiyasining 127-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishslashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi [13] Farmoni qabul qilinadi. Mazkur Farmon hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yuqoridagi qarorga ko'ra, kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 667 ta shtat birliklari qisqartirilib, Uyushma, uning hududiy bo'linmalari va Vazirlar Mahkamasining «Mahalla yettiligi» faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi tashkil etildi [14].

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrda jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining hamkorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligi talab etilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagи "Mahallabay ishslashga mas'ul bo'lган shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda «Mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinadi. Unga ko'ra, «Mahalla yettiligi» tarkibiga 7 nafar a'zodan iborat bo'lган mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiritiladi.

«Mahalla yettiligi»ga fuqarolar yig‘ini raisi rahbarlik qiladi. «Mahalla yettiligi» a’zolari o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi. Mazkur qarorga ko‘ra, «Mahalla yettiligi»ning asosiy maqsadi, vazifalari, vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari belgilanadi [15].

Zero, mahalla tizimining ish faoliyati qay darajada yaxshi va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, davlat va jamiyat qurilishida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi ham shu yo‘sinda kechadi. Bu borada, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ta‘biri bilan aytganda: «Mahalla institutining joylarda xalqning maslakdoshi va ko‘makdoshga, ta‘bir joiz bo‘lsa, adolat tarozisiga aylanishi, hech shubhasiz, odamlarning davlatga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi» [16].

Shu nuqtai nazardan, mahallada odamlar erkin yashashi, o‘z fikrini erkin bildirishi, haq-huquqlari, sh’ni va qadr-qimmati doimo himoya qilinadigan maskan, ijtimoiy institut ekanligini his qilishi, buning uchun o‘z siyosiy-huquqiy madaniyati rivojlantirilib borilishi lozim bo‘ladi. Negaki, mahalla ham ijtimoiy va madaniy institut faoliyatini bajarishi bilan bir qatorda, fuqarolar huquqlari va manfaatlari bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolik jamiyatning noyob instituti vazifasini ham bajarib keladi.

Bu jarayon o‘z navbatida, jamiyat a’zolarining ham siyosiy va ham huquqiy madaniyati oshi borishiga katta ijtimoiy faktor vazifasini o‘taydi. Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashuviga ko‘rsatadigan ta’siri ularning o‘z vazifalarini qay darajada bajarishi bilan belgilanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugnugi kunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z faoliyat mezonlarini fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy va huquqiy madaniyatini shaklantirish va rivojlantirish, ularni faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo‘lgan deomokratik jamiyatning haqiqiy a’zolari etish shakllantirishda safarbar etib borishi zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston jamiyatida mahalla instituti, uning ijtimoiy-siyosiy va kerak bo‘lsa, huquqiy maqomga ega ekanligini ta’riflar ekan, Germaniya Fuqarolik faolligi federal tarmog‘i ishchi guruhi rahbari Ekhard Priller shunday deydi: «...sizda mahalla instituti samarali ishlamoqda. O‘zini o‘zi boshqarishning eng asosiy vazifalarini bajarayotgan bu kabi mahalliy tuzilmalar dunyoning ko‘plab davlatlarida mavjud emas. Ushbu tajribani o‘rganish, nazariy asoslarini yaratish hamda tarqatish lozim. O‘ylashimcha, O‘zbekiston bu borada birinchidir. Bugun ko‘plab mamlakatlar mahalliy tuzilmalarni faollashtirish, buning uchun zarur mexanizmlarni yaratishga urinmoqda. Boisi, fuqarolik jamiyat mustahkamlanishida ularning ahamiyati beqiyosdir» [17].

Bizning fikrimizcha, buguncha mazkur institut tashkil etilishi, faoliyati va uni jamiyatda rivojlantirish borasida ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, siyosiy-huquqiy asoslar

yaratildi, endigi vazifa va tashabbuskorlik mazkur qonunchilikni takomillashtirib borish asnosida ularning xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning haqiqiy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy institutga hamda strategik samarali jarayonlarni tashkil etuvchi ijtimoiy institut mexanizmini kuchaytirib borish zarur hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI

1. Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослар. Фалс.фан.ном. ...дисс. – Т.: 2010. – Б. 119.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 17.10.1992 йилдаги 480-сон. <https://lex.uz/uz/docs/506514>.
3. Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли лугат). А.Азизхўжаев, О.Хусанов, Х.Азизов. –Т.: “Академия”. 2001 й. –Б. 111.
4. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни// ЎзР Олий Мажлисининг Ахборотномаси. –Т.: 1999. –№5(1277). – 35-49-бетлар.
5. Маликова Г.Р. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари – миллий демократик институт. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. –Б. 22.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармонига ШАРҲ. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3106223>.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 февралдаги “Маҳалла институтининг янада самарали фаолият юритишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 117-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3561667>.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 апрелдаги ПФ-5700-сон Фармони. <https://lex.uz/pdfs/4268084>.
10. Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси расмий сайти – <https://mahallas.uz>.
11. *Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.* <https://lex.uz/docs/6600413>.
12. *Qarang:* Қиличев Х.М. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг фуқаролик ҳуқуқий мақомини такомиллаштириш. Юрид.фан.бўй.фалс.док. (PhD) дисс.автореф. –Т.: 2019. –Б. 21.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6705763>.
14. *Qarang*: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6705734>.
15. *Batafsil qarang*: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2024-yildagi 137-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.03.2024-y., 09/24/137/0220-son.
16. Мирзиёев Ш.М. «Ижтимоий барқарорлиши таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби». 15.06.2017.
17. Экхард Приллер: «Ўзбекистон – жадал ривожланаётган мамлакат». Халқ сўзи. 04.08.2015.